



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 3

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA QO'SHMA SO'Z VA SO'Z BIRIKMALARINING QIYOSIY TAHLILI

Allaberganova Firuza Ibraximovna

“Roman-german filologiyasi” kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilidagi qo'shma so'zlarning ingliz tilidagi muqobil variantlari bilan qiyoslanilib va mazkur tillararo ma'no mushtaraklashuvi nisbatini tahlil qilishga harakat qilinadi. Ulardagi ma'no variantdoshlikning xilma-xilligini, shakl va mazmun munosabatlarini tillarning tabiatiga xos xususiyatlari rang-barangligini nazarda tutgan holda bu lingvistik birliklar guruhlariga bo'linib tasniflaniladi.

Kalit so'zlar: til birligi, so'z birikmasi, qo'shma so'z, tahlil.

Ma'lumki, til vositalari orasida so'z birikmalari va qo'shma so'zlar muloqotda alohida ahamiyatga ega bo'lgan birliklar sifatida e'tirof etiladi. Ular deyarli barcha tillarda mavjud bo'lib, bu birliklarning tabiati va mazmun-mohiyatini aniqlash masalasi turli tillar doirasida tilshunoslar tomonidan xilma-xil tarzda talqin qilinadi. Bunday tafovut, bir tomondan, har bir tilning ichki qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, u yoki bu tilni o'rganayotgan mutaxassislarning ilmiy yondashuvlari bilan belgilanadi. Agar mazkur masalaga qiyosiy yondashuv asosida (ya'ni qardosh va qardosh bo'lmagan tillarni solishtirish orqali) nazar tashlansa, ayrim holatlarda umumiy, bir-birini to'ldiruvchi fikrlar mavjud bo'lsa-da, ko'p hollarda mazkur birliklar bo'yicha qarama-qarshi fikrlar ham uchraydi. Bu farqlar faqat ularning alohida xususiyatlariga doir emas, balki ularning o'zaro o'xshashlik va tafovutlari bilan ham bog'liqdir. Quyida esa biz o'zbek va ingliz tillarida mavjud bo'lgan so'z birikmalari hamda qo'shma so'zlarning ayrim umumiy va farqli jihatlarini aniq misollar orqali yoritishga harakat qilamiz.

Bunda birikma yoki qo'shma so'z tarkibidagi aniqlovchi bo'lib kelgan “qizil” so'zi bilan bo'g'liq til birliklarini tahlil qilamiz. “Qizil” bu sifat so'z turkumiga mansub bo'lib, rang nomini bildiradi. U ko'pincha ot bilan birikib, aniqlovchi vazifasida keladi. Bu holda u so'z birikmasi yoki qo'shma so'z tarkibida ishlatilishi mumkin. Tahlilimiz “qizil” komponentli so'z birikmalari va qo'shma so'zlarga qaratiladi.

O'zbek tilida: Qizil shapkacha so'z birikmasini tahlil qilamiz, bu yerda shapkaning rangi qizil ekanligini aniqlab kelyapti. Sitora qizil shapkacha kiydi. Qizil sifati shapka so'zining aniqlovchisi bo'lib, uning rangi tusini bildiriyapti. Mazkur so'zda “-cha” qo'shimchasi shapkaning kichik ekanligini anglatyapti. Singlim otam olib bergan qizil shapkachasini hech boshidan qo'ymaydi.





Qizilshapkacha qo'shma so'z sifatida qaralsa, quyidagicha tahlil qilinadi: Qizilshapkacha buvisiga ovqat olib ketdi. Bu yerda ushbu so'z ertakdagi qiz nomi. Mazkur qo'shma so'zda qizil sifati aniqlovchilik vazifasi bo'lmaydi va shapka so'zi bilan bog'lanib yangi leksik ma'no, ya'ni qiz ismi ma'nosini beradi. Ushbu so'zni tarixiga e'tibor bersak, nemislardan ruslarga keyin esa, ruslardan bizga kirib kelgan. Aslida "Rot kappchen" Grim ertagidan bizga ma'lum. Qizil alohida bo'lgan, lekin o'sha qiz. Qizig'i shundaki, "-cha" qo'shimchasi shapkani emas, qizni kichik ekanligini bildiriyapti.

Ingliz tilida: little red cap (adj+adj+noun) word combination, ushbu holatda little red cap/ qizil shapkacha o'zbek tilidagi qizil/red va shapka/cap aslan tarjima qilingan, biroq o'zbek tilidagi shapkacha so'zidagi "-cha" qo'shimchasi ingliz tilidagi little so'zi shaklida kelgan. She always wears little red cap which was gifted her grandfather.

Little red cap (Little Red Riding Hood) compound word, ya'ni qo'shma so'zi xuddi o'zbek tilidagidek ertakdagi qiz nomi. Imlo jihatdan maskur til birligi o'zbek tilida qo'shib (qizilshapkacha) ingliz tilida esa ajralgan holda (little red cap) deya yoziladi. My granny told me the fairy-tale "Little red cap" before sleeping.

Red cap - (word combination, sifat+ ot) so'z birikmasi bo'lib, qizil kepka boshqa tUSDagi kepkalardan farqlab ko'rsatishda qo'llaniladi. Ushbu til birligi har ikkala tilda ham muqobil variantiga ega, ya'ni red cap/qizil kepka Nowadays boys wear red cap in fashion.

Redcap-(compound word) ushbu qo'shma so'zni bir qancha ma'nolariga ega. 1.poyezdga, samolyot stansiyasiga odamlarning yuklarini tashiydigan odam, ya'ni kasb egasi. 2.mehmonxona, kasalxonalardagi kiraverish joyidagi mijozlardan pul qabul qilib oluvchi hodim. 3.Bazorlarda og'ir yuklarni ko'tarib olib beruvchi shaxs, ya'ni kasb egasi.

Analog misol sifatida issiq xona til birligini tahlilga tortamiz:

O'zbek tilida: issiq xona so'z birikmasi bo'lib, ajratib yoziladi, xonaning issiq ekanligini aniqlab kelyapti. Bizning mashg'ulot xonamiz juda sovuq edi, shuning uchun boshqa issiq xonaga o'tishga majbur bo'ldik.

Issiqxona qo'shma so'z bo'lib kelgan hollardagi ma'nolariga to'xtaldigan bo'lsak, 1) hammomning terlatadigan darajada isitiladigan alohida xonasi. Yaqindagina yuz va sochlarini silab esgan shabada hozir susayib, havo hammomning issiqxonasidagiday dim bo'lib qoldi. H.Nozir, "So'nmas chaqmoqlar". 2) O'simlik yoki hayvonlarni sovuq vaqtda parvarishlash uchun quyosh nuri bilan isitiladigan maxsus oynavon qurilma, bino. Parniklar va issiqxonalarda yetishtiriladigan ertangi sabzavot, goh idorada, goh laboratoriyada, goh o'simlik, gullar o'stiriladigan issiqxonada to'qnash kelib qolishsa, rasmiygina salomlashib o'tirishadi. S.Nurov, Narvon. Qo'shni mahalladagi issiqxona egasi oltmish ming so'm oylik bermoqchiligini aytdi. Gazetadan.





Ingliz tilida: green house-soʻz birikmasi sifatida kelganda uy yashil rangda boʻlib, boshqa rangdagi uylardan ajratib koʻrsatishda qoʻllaniladi. Har ikkala soʻz ham mustaqil maʼnoga ega. Green soʻzi yordamchi urgʻu olsa house asosiy urgʻu oladi.

-Excuse me, can you tell me John's house?

-Go along this street, you can see the green house opposite the shop. That's John's house.

Greenhouse-compound word (adj+noun) oʻsimliklar gullar oʻstirish uchun moʻljallangan issiqxona. Issiqxona // greenhouse. Our president pays a great deal of greenhouses because the benefit will be nice;

Green card-1. AQSHda qonuniy ishlash uchun xorijliklarga kerak boʻladigan hujjat, After he had won a green card he went to America with his family; green card-kartochkaning yashil ekanligini aniqlab soʻz birikmasi sifatida kelyapti, Teacher gave green cards to pupils according to their answers;

the green-eyed monster-badiiy adabiyotlarda keng qoʻllaniladi yaʼni rashq maʼnosida keladi, He was the green-eyed monster; green eyed-soʻz birikmasi sifatida, yashil koʻzli, yaʼni koʻz qorachigʻi yashil ekanligi aytilyapti, She is green eyed with blond hair woman;

Mazkur faslga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz tilida ham oʻzbek tilida ham soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlarning oʻxshash va farqli tomonlari yetarli darajada oʻrganilmagan, aniq differensiya qilinmagan va guruhlariga ajratilmagan. Ushbu tadqiqot ishimizda oʻzbek va ingliz tillarida bu borada ancha ishlar qilindi. Soʻz birikmalari ajratib yozilishi, qoʻshma soʻzlar nomidan kelib chiqib va anglatayotgan narsa hodisasi nuqtai nazaridan qoʻshib yozilishini maʼqul topdik. Qoʻshma soʻzlar va soʻz birikmalarining funksional vazifalari belgilanildi, ularni oʻzlariga xos xususiyatlari ajratib koʻrsatidi. Bizning fikrimizcha, oʻzbek tilshunoslari bu qilingan ilmiy ishlarga jiddiyroq yondashadilar va yaqin kelajakda milliy tilimizning oʻrganilishidagi qusurli holatlarga uzil-kesil chek qoʻyadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Raxmatullayev Sh., Hojiyev A. Qoʻshma soʻzlarning imlo qoidalari va lugʻati. -Toshkent, 1961.
2. Hojiyev A. Oʻzbek tilida qoʻshma, juft va takroriy soʻzlar. - Toshkent, 1963.
3. Madaliyev B. Hozirgi oʻzbek tilida qoʻshma soʻzlar. - Toshkent, 1966.
4. Mamatov N. Oʻzbek tilida qoʻshma soʻzlar. - Toshkent, 1982.
5. Laurie B. Compounding. In Haspelmath, Martin et al. (eds.): Language universals and language typology. Berlin/New york: De Gruyter. 2001. P. 695.





6. Sergio S., Irene V. Cross-Disciplinary Issues in Compounding. Amsterdam studies in the theory and history of linguistic science. Series IV, Current Issues in Linguistic Theory, ISSN 0304-0763; V. 311. 2010. P.4.
7. Booij G. The Grammar of words. -New York: Oxford University Press Inc, 2005.



